

ЧЕТ ТИЛИ О'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

Guzal Musayeva

Tashkent University of Applied Sciences, Gavhar Str. 1,
Tashkent 100149, Uzbekistan
guzal-mus@mail.ru

Kalit so'zlar: chet tili, zamonaviy metodlar, kommunikativ yondashuv, ta'limgardagi texnologiyalar, o'rganishni individuallashtirish, madaniyatlararo, muloqot, kompetentsiya, chet tillarini o'qitish.

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tilini o'rgatishning zamonaviy uslub va yondashuvlari, ularning o'quv jarayoniga ta'siri va o'quvchilar natijalariga bag'ishlangan. Maqolada chet tili darslarida kommunikativ yondashuv, zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi, individual uslublar va madaniyatlararo muloqot kompetentsiyasini rivojlantirish tahlil qilinib, natijasi ko'rib chiqildi. Chet(nemis) tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, jumladan texnik vositalar orqali o'quv jarayonini boyitish va talabalarda axborot texnik kompetensiyani, shu bilan birga til ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni rag'batlantirish imkonini berishi tahlillar orqali yoritib berildi. Talabalarni muvaffaqiyatli tayyorlashda zamonaviy usullar ta'lim muhitida dolzarb ekanligi isbotlab berildi.

KIRISH

Bizning dinamik axborot jamiyatimizda chet tillarini o'qitish jarayoni sezilarli o'zgarishlarga duch keldi. Globallashuv va ular bilan bog'liq madaniy va iqtisodiy o'zaro ta'sirlar muhim o'rinn tutayotgan bugungi dunyoda chet tilini bilish har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan Yevropaning eng keng tarqalgan va nufuzli tillaridan biri bo'lgan nemis tilini o'rgatish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi talabalar zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi tufayli axborot va ta'lim olish ancha erkin va rang-barang bo'lib qolgan davrda yashamoqda. Talabalar endi darsliklar va faqat auditoriyadagi ma'ruzalar bilan cheklanib qolmay, chet tilini o'rganishni yanada qulayroq va qiziqarli qiladigan interaktiv onlayn resurslar, mobil ilovalar, video konferentsiya va boshqa vositalardan foydalanishlari mumkin.

Chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuv talabalarining faol ishtirokiga yo'naltirilgan bo'lib, o'z oldiga til bilimlarini real vaziyatlarda qo'llash imkonini beruvchi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasini qo'yadi. O'qitish amaliyotida fikr-mulohazalar, madaniy integratsiya va haqiqiy(autentik) materiallardan foydalanish kabi yondashuvlar keng tarqalgan.

Chet tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvning muhim jihatni ham ko'p tillilik va ko'p madaniyatli ta'limga e'tibor berishdir. Talabalar ona tilida so'zlashuvchilar bilan muloqotda bo'lib, til va madaniyatni parallel ravishda o'rganadilar. Bu chet el madaniyati haqida chuqurroq tushuncha hosil qiladi va madaniyatlararo kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ko'pchilik pedagoglar innovation texnologiyalar orqali interaktiv darsni tashkil etish talabalarni mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etishi, talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda ta'minlanishi va bu pedagogik hamkorlik jarayonining o'ziga hos hususiyatlari ekanligini ta'kidlashadi [1]. Ushbu hamkorlikdagi erkin dars albatta chet tili o'qitishning yana bir muhim jihatni hisoblanadi.

Metodologiya

Biz chet tillarni o'qitishning fundamental tamoyillari, tillarni o'qitishning turli usullari, shuningdek, texnologiya integratsiyasining nemis tilini o'qitish jarayoniga ta'siri haqida tahliliy muhokama qilmoqchimiz. Tahlilning muhim jihatni – O'zbekistonda ta'limga raqamlashtirish va zamonaviy ta'lim sharoitida nemis tili o'qituvchilarining kasbiy kompitentntini rivojlantirish.

Quyida nemis tilini o'qitishda o'qituvchilar va talabalarning amaliy tajribasiga asoslangan turli metodlar va manbalari tahlilini ko'rib chiqamiz.

- Zamonaviy texnik vositalar integratsiyasi: O'quv jarayonida onlayn resurslar va raqamli vositalardan foydalanish talabalarga interaktiv va samaraliroq o'rganish imkonini beradi. Onlayn platformalar turli materiallarga, jumladan, audio va video kontentga kirishni ta'minlaydi.

- Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish: O'rganishga kommunikativ yondashuv nemis tilida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar audio vizual vositalar orqali eshitib tushunishi va shu bo'yicha o'z fikr va g'oyalarini ifoda etishi iboralarni dialog va rolli o'yinlarda qollashni o'rganadilar.

- Madaniy jihatlarning integratsiyasi: Nemis madaniyati va an'analarini o'rganish ta'limning ajralmas qismiga aylanadi. Urf odatlar, bayramlar mavzusida slaydlar, subtitrli filmlar hamda qisqa video darslarni joriy qilish talabalarga tilni kengroq kontekstda tushunishga va madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

- Individuallashtirilgan yondashuv: individuallashtirilgan o'quv dasturidan foydalanish talabalarning turli ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. Bu yanada samarali o'rganish va yaxshi natijalarga hissa qo'shadi.

Yuqorida tahlillar shuni tasdiqlaydiki, chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi, turli interaktiv usullar, eshitib tushunish, gapirish, muloqot kompetensiyalarini rivojlantiruvchi turli innovatsion ped texnologiyalar tilni chuqurroq va yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi. Talabalar o'zida til kompetensiyasini yanada muvaffaqiyatli rivojlantiradilar va nemis tilidan real hayotda

foydalana oladilar. N.G'ofurov va S. Osipov ko'rsatib o'tgan, multimedya rivojlangan ushbu davrda dolzarb bo'lgan o'rganishning didaktik tamoyillari, ya'ni ilmiylik, mavjudlik, sistematiklik, amaliyot bilan bog'liqlik, o'quvchilarning ongi va faolligi, o'qitishda individualizasiya kabi xususiyatlar bunga misol bo'la oladi. Shuningdek A. Parmonov talabalarda axborot texnik kompetensiya, ularda ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradigan hamda o'quv faoliyati uchun bir qator omillarni keltirib o'tadi [2]. K.D.Ushinskiy esa asta sekinlik bilan tabiatga moslashish, psixologik xususiyatlarga muvofiq bo'lism, muntazamlik va faollik kabi xususiyatlarni keltiradi[3].

I. Litvinets AKTdan foydalanishning quyidagi afzalliklarini sanab o'tadi:

• O'qishga tayyorlik darajasi har xil bo'lgan talabalarga tabaqlashtirilgan yondashuvni amalga oshirish qobiliyati.

- Darsda vizual, audiovizual va video yordamidan foydalanish.

- Darsning yuqori tezligini saqlab turish, sinf.

- O'qituvchi va talabalar o'rtasida samarali aloqa o'rnatish.

- Talabalar UUD operativ va ob'ektiv nazoratini amalga oshirish.

- Muvaffaqiyat Yuqori sifatli o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirish.

Ammo uning talabalarni tabaqlashtirish, "muvaqqiyat yuqori sifatli" talabalar bilan ishslash haqidagi fikrlari maqsadlarni biroz chigallashtiradi. To'g'ri, AKT orqali dars o'tish talabalarda oldinma ketin o'zlashtirish, orqada qolish yoki axborot kommunikativ kompetensiyasi bo'limgan talabaning o'zlashtirishida muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Bunday hollarda ularga alohida yondashish choralarini ko'rish zamonaviy chet tili o'qituvchisining mahoratiga bog'liq. Bunda interaktiv va onlayn platforma orqali beriladigan auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar yordamida (prezentatsiyalar, interaktiv testlar tuzush, Internetda ma'lumot qidirish, loyihalarni tayyorlash, tayyor elektron resurslardan foydalanish, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanish) talaba o'z ustida ishlaydi hamda dars materiallarini ham mustaqil ham "majburiy" o'zlashtiradi. [4].

Nemis tilini o'qitishning zamonaviy usullari quyidagi natijalarni ko'rsatmoqda: Jonli dialoglar, rolli o'yinlar va boshqa kommunikativ faoliyat bilan shug'ullanadigan o'quvchilar muloqotda til ko'nikmalarini yaxshi namoyish etadilar. Zamonaviy texnologiyalar integratsiyalashgan Chet (nemis)tili darsi yanada interaktiv va qiziqarli bo'ladi. Onlayn manbalar va ilovalar talabalarga o'zlari uchun qulay vaqtida mustaqil ravishda tilni o'rganish va bilimlarini chuqurlashtirish imkoniyatini beradi. Hamkorlikda o'qitish, loyiha metodologiyasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, internet resurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar talim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga, talabalarning qobiliyatlari, ularning bilim olish darajasi va o'zlashtirish darajasini hisobga olgan holda o'qitishni individuallashtirishga yordam beradi [5].

Nemis madaniyati va tarixini o'rganish talabalarga tilni kontekstda yaxshiroq tushunishga va madaniyatlararo kompetentsiyani rivojlantirishga imkon beradi. Bu bugungi dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni ta'kidlash kerakki, muloqot ko'nikmalariga va tildan real muhitda foydalanishga yo'naltirilgan dars muhim afzalliklarni ko'rsatadi. Dialoglar, rolli o'yinlar, real vaziyatlarni tashkil etish va boshqa kommunikativ mashqlarda qatnashgan talabalar nemis tilida muloqot qilishda yuqori darajadagi til malakasini namoyish etadilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy texnikalar zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Shunday ekan, zamonaviy uslublar o'qituvchilardan doimiy kasbiy rivojlanishni talab qiladi. O'qituvchilar darslarda texnologiyani integratsiyalash, o'quv materiallarini moslashtirish va rag'batlantiruvchi o'quv muhitini yaratishga tayyor bo'lishi kerak, shuningdek, talabalarining o'zgaruvchan muhitga moslashishida talab va umidlarini rag'batlantira olishi kerak.

Multimediyadan foydalanish talabalarga gazeta-jurnallardan, televizordan ma'lumotlar olish, film va roliklar bilan ishslash, mustaqil ravishda intervyular tayyorlash, autentik materiallardan foydalanish kabi sharoitlarni yaratadi va shu bilan birga telekonferentsiyalar o'tkazishda hissa qo'shadi. Bularning barchasi zamonaviy texnikalar innovatsion ta'lim muhitida talabalarini qondirish uchun muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda nemis tilini o'qitishga zamonaviy yondashuv, ya'ni multimediyadan foydalanib dars o'tish, muloqot ko'nikmalariga va tildan real muhitda foydalanishga yo'naltirilgan darsni tashkil qilish, talabalarga tilni chuqurroq tushunishda va undan foydalanishda, muloqot ko'nikmalarini va madaniy kompetentsiyani rivojlantirishda, shu bilan birga o'quv jarayonini yanada qiziqarli tashkil qilishda ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR:

- [1] Sobirova Sh. Xorijiy tillarni o'qitishning samarali usullari(nemis tili misolida). Journal of Academic Research in educational sciences. Volume 2. 2021
- [2] A.A.Parmenov "TA'LIM JARAYONIDA AKT IMKONIYATLARI". Ta'lif, fan va innovasiya jurnali 2021 yil 2-son.
- [3] Ушинский, К. Д. Проблемы педагогики: избранные труды в 4 книга 1 – Москва. Дрофа, 2005
- [4] Litvinets Irina Igorevna. O'quv jarayonida AKTdan foydalanish metodikasi. Ta'lif faoliyatida axborot -kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Sankt Peterburg, 2021
- [5] Axmedova S.A. NEMIS TILINI O'QITISH METODLARI. British International Science Conference.